

**Yer qaʼrini geologik jihatdan oʻrganish
boʻyicha ishlarni davlat hisobiga olish
va yer qaʼri davlat fondi kadastrini
yuritish tartibi toʻgʻrisida
USLUBIY QOʻLLANMA**

TOSHKENT-2025

Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish bo'yicha ishlarni davlat hisobiga olish va yer qa'ri davlat fondi kadastrini yuritish tartibi to'g'risida uslubiy qo'llanma.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasida yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish bo'yicha bajarilgan ishlarni davlat hisobiga olish hamda yer qa'ri davlat fondi kadastrini yuritish tartibini belgilab beradi. Qo'llanma geologik tadqiqotlarning izchil, tizimli va yagona metodika asosida yuritilishini ta'minlash, yer qa'riga oid ma'lumotlarni to'plash, qayd etish, saqlash va muntazam yangilab borish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi tashkilotlar, geologiya-qidiruv ekspeditsiyalari, yer qa'ridan foydalanuvchi korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan bo'lib, yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish va kadastr ma'lumotlarini ishonchli, to'liq va samarali yuritishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

MUNDARIJA:

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR	4
UMUMIY QOIDALAR.....	5
YER QA'RINI DAVLAT TOMONIDAN GEOLOGIK JIHATDAN O'RGANISH ISHLARINI DAVLAT HISOBIGA OLISH	5
FOYDALI QAZILMALARNI QAZIB OLISH BILAN BOG'LIQ YER QA'RINI GEOLOGIK JIHATDAN O'RGANISH ISHLARINI DAVLAT HISOBIGA OLISH SHARTLARI VA MA'LUMOTLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI ..	5
YER QA'RI DAVLAT FONDI KADASTRINI HISOBGA OLISH OBYEKTлари	5
YER QA'RI DAVLAT FONDI KADASTRINI YURITISH VA HISOBGA OLISH UCHUN MA'LUMOTLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI	5

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

"O'zbekiston Respublikasining Yer qa'ri to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi 92-son "Geologiya-razvedka ishlarini tashkil etish va olib borish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi 133-son "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-iyuldagi 467-sonli "Yer qa'ri davlat fondi ma'lumotlarini yuritish tartibini takomillashtirish to'g'risida " gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda yer qa'ridan oqilona foydalanish, geologik resurslarni boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish jarayonlarini standartlashtirish, mavjud konlar va istiqbolli hududlar bo'yicha ma'lumotlarning to'liqligini ta'minlash hamda davlat kadastrlarini raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Geologik tadqiqotlar natijasida shakllanadigan ma'lumotlarning davlat hisobiga olingan holatda yuritilishi konchilik sanoatining barqaror rivojlanishi, investitsiya loyihalarini samarali rejalashtirish, yer qa'ridagi resurslar holatini aniq aks ettirish hamda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shuningdek, yer qa'ri davlat fondi kadastrining to'liq va muntazam yuritilishi davlat boshqaruvi organlariga strategik qarorlar qabul qilishda zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish bo'yicha ishlarni davlat hisobiga olish tartibini belgilash, yer qa'ri davlat fondi kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari va mexanizmlarini izohlash, ma'lumotlarni yig'ish, qayd etish va tahlil qilish jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

UMUMIY QOIDALAR

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

“Geomonitoring” axborot tizimi — yer qa'ridan foydalanish sohasida axborotni to'plash, saqlash, izlash, tahlil qilish hamda undan foydalanish imkonini beruvchi idoralararo integratsiyalashgan axborot tizimi;

geologik jihatdan o'rganish ishlari — O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiriladigan yer qa'ri uchastkalarini geologik jihatdan o'rganish ishlari bilan bog'liq jarayonlar;

yer qa'ridan foydalanuvchilar — qonunchilik hujjatlariga muvofiq foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalarida geologik jihatdan o'rganish ishlarini amalga oshirish huquqi uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan yuridik shaxslar.

geologik jihatdan o'rganish ishlari natijalari hisoboti — yer qa'rini geologik o'rganish, foydali qazilmalar konlarini izlash, aniqlash va ularning sanoatda qo'llanish imkoniyatlarini baholash maqsadida amalga oshirilgan ishlar yakunlarini aks ettiruvchi hisobot;

kadastr pasporti — yerosti qatlamlarida yoki yer yuzasida kelib chiqishi noorganik va organik bo'lgan qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi tabiiy mineral hosilalar, shu jumladan, miqdori va sifati jihatidan sanoat miqyosida o'zlashtirish imkoni mavjud bo'lgan obyekt yoki tarkibi foydali qazilmalardan iborat yer qa'ri uchastkasining geologik, texnik, iqtisodiy va ekologik xususiyatlarini batafsil aks ettiruvchi rasmiy hujjat yoki ma'lumotlar to'plami.

DIQQAT!

Yer qa'ri davlat fondi kadastrı O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda — Yer qa'ridan foydalanish markazi) tomonidan yuritiladi.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog'liq yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlarini davlat hisobiga olish uchun Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Geomonitoring" axborot tizimi orqali buyurtma berish orqali amalga oshiriladi.

Yer qa'ri davlat fondi kadastrı quyidagilardan iborat:

- 📍 qattiq holdagi foydali qazilmalar konlarining va belgilarining kadastrı;
- 📍 ulevodorodlar kadastrı;
- 📍 yer qa'ri makonining kadastrı;
- 📍 qattiq holdagi foydali qazilmalarga, yer ostida saqlashga doir ruxsatnomalar va boshqa ruxsatnomalar kadastrı;
- 📍 texnogen mineral hosilalar kadastrı.

Ulevodorodlar kadastrı neft-gaz operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda alohida kadastr tarzida yuritiladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 📍 ulevodorodlar konlari va belgilarining kadastrı;
- 📍 ulevodorodlar konlari bo'yicha ruxsatnomalar kadastrı;
- 📍 ulevodorodlar quduqlarining kadastrı.

Yer qa'ri davlat fondi kadastri mineral-xomashyo bazasini rivojlantirishga va to'ldirishga oid har yilgi davlat dasturlarini shakllantirishni ta'minlash, yer qa'rini muhofaza qilishga oid ishlarni tashkil etish, foydali qazilma konlari, belgilari, yer qa'ri makoni va texnogen mineral hosilalari obyektlarining asosiy tavsiflari, shuningdek, foydali qazilmalar konlarining geologik-iqtisodiy jihatdan baholanishi haqidagi barcha mavjud axborotni o'z ichiga oladi.

YER QA'RINI DAVLAT TOMONIDAN GEOLOGIK JIHATDAN O'RGANISH ISHLARINI DAVLAT HISOBIGA OLISH

Yer qa'rini geologik o'rganish loyihasi tasdiqlangan kundan boshlab **1 oy muddatda** tizim tashkilotlari ushbu ishlarni davlat hisobiga olish to'g'risidagi buyurtmani Yer qa'ridan foydalanish markaziga **"Geomonitoring"** axborot tizimi orqali taqdim etadi.

Yer qa'ridan foydalanish markazi buyurtma kelib tushgan kundan boshlab 5 ish kunida buyurtmani va unga ilova qilingan ma'lumotlar taqdim etilganligini tekshiradi va natijasi bo'yicha:

- 📌 hujjatlar to'liq taqdim etilmagan taqdirda, kamchiliklarni bartaraf etish uchun hujjatlarni tizim tashkilotlariga qaytaradi va bu haqida uni xabardor qiladi;
- 📌 hujjatlar to'liq taqdim etilgan taqdirda, buyurtmani "Geomonitoring" axborot tizimida tegishli tartib raqam bilan hisobga oladi va ushbu haqida tizim tashkilotlarini xabardor qiladi.

DIQQAT!

Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlarini qayta davlat hisobiga olish jarayonida yangi tartib raqam beriladi.

Agar bir vaqtning o'zida 2 va undan ortiq tizim tashkilotlari tomonidan yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlari 1 maydonning 2 va undan ortiq geologik qatlamlariga to'g'ri kelsa,

ushbu hollarda har bir tashkilot tomonidan yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlari alohida davlat hisobiga olinadi. Bunda davlat hisobiga olish jarayonida har bir yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish maydonining qatlam chuqurligi va qalinligi belgilanadi.

BILIB OLING!

Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlarini birinchi boshlagan tizim tashkiloti ushbu maydonning boshqa qatlamida geologik jihatdan o'rganish ishlarini amalga oshirmoqchi bo'lgan tizim tashkiloti yer qa'rini o'rganish ishlari kelishiladi.

Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlari jarayonini

- vaqtincha;
- to'liq to'xtatish, shuningdek,
- uning muddati o'zgargan taqdirda tizim tashkilotlari tomonidan **10 kun** muddatda Yer qa'ridan foydalanish markazini **"Geomonitoring"** axborot tizimi orqali xabardor qiladi va asoslovchi hujjatlarni (bayon, buyruq) taqdim etadi.

Yer qa'ridan foydalanish markazi **5 ish kunida** tizim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni (bayon, buyruq) ko'rib chiqadi

FOYDALI QAZILMALARNI QAZIB OLISH BILAN BOG'LIQ YER QA'RINI GEOLOGIK JIHATDAN O'RGANISH ISHLARINI DAVLAT HISOBIGA OLISH SHARTLARI VA MA'LUMOTLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI

Yer qa'ridan foydalanish markazi buyurtma kelib tushgan kundan boshlab **5 ish kunida** buyurtmani va unga ilova qilingan ma'lumotlarini taqdim etilganligini tekshiradi va natijasi bo'yicha:

- hujjatlar to'liq taqdim etilmagan taqdirda, kamchiliklarni bartaraf etish uchun hujjatlarni tizim tashkilotlariga qaytaradi va bu haqida ularni xabardor qiladi;
- hujjatlar to'liq taqdim etilgan taqdirda, buyurtmani "Geomonitoring" axborot tizimida tegishli tartib raqam bilan hisobga oladi va ushbu haqida yer qa'ridan foydalanuvchilarni xabardor qiladi.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlarini davlat hisobiga olingani to'g'risidagi xabar olingan kundan boshlab yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlarini amalga oshirishga asos bo'ladi.

Foydali qazilmalarni qazib olish huquqiga berilgan ruxsatnomada ko'rsatilgan faqat shu turdagi foydali qazilmalarni geologik jihatdan o'rganish ishlarini davlat hisobiga olishga ruxsat etiladi.

25. "Geomonitoring" axborot tizimi orqali taqdim etilgan axborot va hujjatlarning haqqoniyligi va to'g'riligi uchun ularni taqdim etganlar mas'ul va javobgar bo'ladilar.

YER QA'RI DAVLAT FONDI KADASTRINI HISOBGA OLISH OBYEKTлари

Yer qa'ri davlat fondi kadastrini hisobga olish obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- 📌 foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansiga olingan konlar;
- 📌 foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansida hisobga olingan konlarning alohida uchastkalari;
- 📌 yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish (batafsil baholash) ishlari tugallangan, lekin mavjud foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansiga olinmagan konlar;
- 📌 foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansi hisobidan chiqarilgan konlar (zaxiralari qazib olingan konlardan tashqari);
- 📌 foydali qazilmalar konlarida qazib olish ishlari (ekspluatatsiya) vaqtincha to'xtatilgan hamda yer qa'ridan foydalanish huquqi bekor qilingan yoki konservatsiya qilingan konlar;
- 📌 tarkibida amaliy qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan qimmatli komponentlar mavjud bo'lgan, shuningdek, atrof-muhit ifloslanishiga va aholiga jiddiy xavf soluvchi kam miqdordagi ma'danlar uyumlari, chiqindi omborlari va boshqa texnogen mineral hosilalar obyektlari.

YER QA'RI DAVLAT FONDI KADASTRINI YURITISH VA HISOBGA OLISH UCHUN MA'LUMOTLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI

Mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi tashkilotlar qattiq foydali qazilmalar va uglevodorodlarni geologik o'rganish bo'yicha yakuniy hisobot va to'ldirilgan pasportlarni bir oy muddatda **"Geomonitoring" axborot tizimi** orqali Yer qa'ridan foydalanish markaziga taqdim etadi.

Bilib oling!

Yer qa'ridan foydalanish markazi tomonidan tizim tashkilotlari yoki yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan taqdim etilgan pasportlarni **10 ish kuni** ichida ko'rib chiqiladi va qabul qilingani yoki kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida xabarnoma yuboriladi.

Bunda tizim tashkilotlari yoki yer qa'ridan foydalanuvchilar **10 ish kun ichida** kamchiliklarni bartaraf etib, Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Geomonitoring" axborot tizimi orqali pasportlarni takroran yuboradi.

Yer qa'ridan foydalanish markazi tizim tashkilotlari yoki yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan takroran yuborilgan pasportlarni **10 ish kuni ichida** ko'rib chiqadi va qabul qilinganligi to'g'risida xabarnoma yuboradi.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar qattiq foydali qazilmalar va uglevodorodlar belgilarining geologik jihatdan o'rganish ishlari natijalari to'g'risidagi yakuniy hisobot bilan birga to'ldirilgan pasportlar o'z vaqtida taqdim etmagan taqdirda, Yer qa'ri to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor hisoblanadi va belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Tizim tashkilotlari yoki yer qa'ridan foydalanuvchilar geologik jihatdan o'rganish ishlari natijalari bo'yicha qattiq foydali qazilmalar va uglevodorodlar belgilarining geologik hisobotlar bilan birga to'ldirilgan pasportlarini Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Geomonitoring" axborot tizimi orqali topshirganidan so'ng keyinchalik pasportlar doimiy ravishda ma'lumotlar bilan to'ldiriladi va yangilab boriladi. Yer qa'ridan foydalanish markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Yer qa'ridan foydalanishga (qattiq foydali qazilmalar va uglevodorodlar konlari qazib olish, yer qa'ri makonida saqlash hamda texnogen mineral hosilalarni o'zlashtirish) berilgan ruxsatnomalar bo'yicha pasportlar Yer qa'ridan foydalanish markazi tomonidan to'ldiriladi.

Qattiq foydali qazilmalar va uglevodorodlar belgilarining geologik jihatdan o'rganilgani bo'yicha to'ldirilgan pasportlar, geologik jihatdan o'rganish ishlari yakunlanganidan so'ng qattiq foydali qazilmalar va uglevodorodlar konlari pasportlari mavqeyiga o'tkaziladi.

ILOVALAR

1-ilova

Yer qa'ri davlat fondi kadastriga to'ldirilgan pasportlarni yuborish va hisobga olish tartibi

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Tizim tashkilotlari	Qattiq foydali qazilmalar va uglevodorodlar belgilarining geologik jihatdan o'rganish ishlari yakunlanganidan so'ng pasportlarni Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Geomonitoring" axborot tizimi orqali taqdim etadi	1 oy
	Yer qa'ridan foydalanuvchilar		3 oy
2-bosqich	"Yer qa'ridan foydalanish markazi" DM	"Geomonitoring" axborot tizimi orqali taqdim etilgan pasportlarni ko'rib chiqadi va qabul qilinganligi yoki rad etilganligi haqida xabarnoma yuboradi	10 ish kuni mobaynida
3-bosqich	Tizim tashkilotlari yoki yer qa'ridan foydalanuvchilar	Pasportlarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda kamchiliklarni bartaraf etib takroran Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Geomonitoring" axborot tizimi orqali pasportlarni yuboradi	10 ish kuni mobaynida
4-bosqich	"Yer qa'ridan foydalanish markazi" DM	Tizim tashkilotlari yoki yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan takroran yuborilgan pasportlarni ko'rib chiqadi va qabul qilinganligi to'g'risida xabarnoma yuboradi	10 ish kuni mobaynida

**Yer qa'rini davlat tomonidan geologik jihatdan o'rganish
ishlarini davlat hisobiga olish**

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Tizim tashkilotlari	Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlarini davlat hisobiga olish uchun Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Geomonitoring" axborot tizimi orqali buyurtma taqdim etadi.	Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish loyihasi tasdiqlangan kundan boshlab bir oy muddatda
2-bosqich	"Yer qa'ridan foydalanish markazi" DM	Tizim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan buyurtmani va unga ilova qilingan ma'lumotlarni taqdim etilganligini tekshiradi va natijasi bo'yicha: hujjatlar to'liq taqdim etilmagan taqdirda, kamchiliklarni bartaraf etish uchun hujjatlarni tizim tashkilotiga qaytaradi va bu haqida uni xabardor qiladi; hujjatlar to'liq taqdim etilgan taqdirda, buyurtmani "Geomonitoring" axborot tizimida tegishli tartib raqam bilan hisobga oladi va ushbu haqida tizim tashkilotlarini xabardor qiladi.	Besh ish kuni mobaynida

This image shows a full page of blank white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page, providing a template for writing or drawing. There are no margins, text, or other markings present.